



O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 2 ISS: 6 (2025)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI

TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS



№	MUNDARIJA	Page
1.	SUG'URTA XIZMATLARIGA BO'LGAN ISTE'MOL TALABINI OSHIRISHNING INNOVATSION YO'LLARI <i>Qo'ldoshev Qamariddin Mansurovich</i>	4
2.	O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORINING IQTISODIY GLOBALLASHUV JARAYONLARIGA RAQAMLASHTIRISHNING TA'SIR YO'NALISHLARI <i>Nomozova Qumri Isoevna</i>	9
3.	QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO'JALIGINING SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA SUG'URTA XIZMATLARINING ROLI <i>PhD. dosent Kalenov K.T.</i>	14
4.	MARKAZIY OSIYODA TAKAFULNING VAKALAH MODELINI TADBIQ QILSIH IMKONIYATI <i>Fayzullayev Diyorbek Zafar o'g'li</i>	17
5.	INOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA RASSIYA FEDERATSIYASI BANK SUG'URTASINING XOZIRGI XOLATINING TAXLILI <i>Tog'ayniyazov Shohzodbek Ural o'g'li</i>	20
6.	O'ZBEKISTONDA SUG'URTA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI <i>Baratova Dinora Alisherovna</i>	23
7.	O'ZBEKISTONDA KARBON BOZORI VA KARBON SUG'URTASINI JORIY ETISH IMKONIYATLARI <i>Erkaboyev Yorbek Boirbekovich</i>	25
8.	УПРАВЛЕНИЕ ДЕНЕЖНЫМИ ПОТОКАМИ ПРЕДПРИЯТИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ: СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И ВОЗМОЖНОСТИ ОПТИМИЗАЦИИ <i>Жиянова Наргиза Эсанбоевна, Роишева Диёра Равшановна</i>	28
9.	ЦИФРОВОЕ ФИНАНСИРОВАНИЕ И ФИНТЕХ КАК ДРАЙВЕРЫ РОСТА ИНВЕСТИЦИОННЫХ СДЕЛОК В РЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВЕ <i>Жиянова Наргиза Эсанбоевна, Рахимбоева Сугдиёна Рахимбоевна</i>	33
10.	TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI CHAKANA XIZMATLARI VA UNING NAZARIY ASOSLARI <i>Alimov Umid O'ktambayevich</i>	37
11.	TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA ISLOM BANKCHILIGINI JORIY QILISHNING AHAMIYATI <i>Xaitov Shaxzod Sharipboyevich</i>	42
12.	TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI <i>Mamaraimova Rushana Rashidovna</i>	46
13.	O'ZBEKISTONDA BANK SOHASIDAGI ISLOHOTLAR: HOZIRGI MUAMMOLAR VA YUZAGA KELAYOTGAN IMKONIYATLAR <i>dotsent, Sung Tae Kyun</i>	50
14.	TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN TADBIRKORLIK SUB'EKTLARINI MOLIYALASHTIRISH YO'LLARI <i>Yuldashev Fozil Turapovich</i>	57
15.	DAVLAT IQTISODIY SIYOSATINING INVESTISION MUHITGA TA'SIRI <i>Imomov Xamdilla Xamdamovich</i>	61
16.	O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMIDA BILVOSITA SOLIQQA TORTISH TAHLILI <i>Shirinov Sabir Erkinovich, Mirasimov Ershod Sunatullayevich, Kabirov Abdulla Maxmutovich</i>	63

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
2. Maqsudov Davron Sanjarxo‘jayevich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktori o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (“O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasi” AJ bosh direktori, iqtisodiyot fanlari doktori).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
5. Abdurahmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
6. Sindarov Sherzod Egamberdiyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
7. Zakirov Latif Xamidullayevich (Moliya vazirligi huzuridagi TKFJMS qoshidagi To‘lovlarni kafolatlash jamg‘armasi direktori).
8. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari uyushmasi kengashi raisi).
9. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash markazi rahbari, dots.).
10. Quldoshov Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, DSc, bosh muharrir).
11. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, prof.).
12. Shennayev Xojayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
13. Boyev Xabibullo Ismoilovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori).
14. Ortiqov Furqat A‘zamjonovich (“Kafil Sug‘urta” AK sug‘urta kompaniyasi direktorlar kengashi raisi).
15. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (O‘zbekiston madaniyat va san‘at instituti professori, i.f.n. dots.).
16. Merident Randles (FSA, MAAA. Principal & Consulting Actuary. Katta maslahatchi, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
17. Ong Xie (FIA, FSAS. Dastur menejeri, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Olmosh: She/Her).
18. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi rahbari, i.f.b.f.d.).
19. Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich (TDIU “Moliya bozori va sug‘urta” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori).
20. Mutalova Dilorom Maxamadjanovna (TDIU “Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori).
21. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professori v.b., falsafa fanlari doktori).
22. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU Magistratura bo‘yicha dekan o‘rinbosari, i.f.b.f.d., dots.).
23. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori v.b., iqtisodiyot fanlari doktori).
24. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida professori v.b. i.f.d.).
25. Samadov Asqarjon Nishonovich (TDIU “Marketing” kafedrasida dotsenti, universitet Kengashi kotibi, fanlar nomzodi).
26. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, t.f.n. kotib).
27. Qarshiyev Daniyar Eshpo‘latovich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, i.f.n., bosh muharrir).
28. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank-moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
29. Hamdamov Shoh-Jahon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).
30. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).



MARKAZIY OSIYODA TAKAFULNING VAKALAH MODELINI TADBIQ QILSIH IMKONIYATI

Fayzullayev Diyorbek Zafar o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
SS-64 guruh 4-bosqich talabasi
fayzdiyov777@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Takaful Vakala (bundan keyin — Vakalat) modeli, ya'ni islomiy sug'urta tizimida qo'llaniladigan vositachilik (agentlik) shartnomasi shaklining Markaziy Osiyo iqtisodiy muhitidagi ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Maqolada, avvalo, Takaful Vakalat tushunchasi nazariy jihatdan yoritilib, uning amal qilish mexanizmlari an'anaviy sug'urta agentligi amaliyotlaridan farqli jihatlari asoslab beriladi. Xususan, mazkur modelning oshkorlik, o'zaro rozilik, adolatli boshqaruv hamda xavfni jamoaviy bo'lish kabi islom moliyasiga xos fundamental tamoyillari atroflicha tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada Takaful Vakalat modelining Markaziy Osiyo mamlakatlari sharoitiga mosligi quyidagi mezonlar asosida baholaniadi: mintaqaning huquqiy-institusional tizimi, islom moliyasi va sug'urta bozorining rivojlanish darajasi, ijtimoiy-iqtisodiy omillar hamda madaniy-diniy yaqinlik xususiyatlari. Bundan tashqari, maqolada mazkur modelni Markaziy Osiyoda joriy etish bilan bog'liq iqtisodiy va institusional afzalliklar, shu bilan birga, amalga oshirish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan huquqiy, tashkiliy va bozor muammolari ham kompleks tarzda muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Takaful, islom sug'urtasi, Takaful Vakillik modeli, xalqaro tajriba, moliyaviy savodxonlik, O'zbekiston sug'urta bozori, shariat nazorati, Markaziy Osiyo.

Abstract: This article provides a scientific analysis of the significance of the Takaful Wakalah (hereinafter referred to as Wakalah) model, which represents a form of intermediary contract applied within the Islamic insurance system, in the economic environment of Central Asia. First, the article theoretically elaborates on the concept of Takaful Wakalah and substantiates the distinctive features of its operational mechanisms in comparison with conventional insurance agency practices. In particular, the study offers an in-depth analysis of the fundamental principles inherent to Islamic finance, such as transparency, mutual consent, equitable governance, and collective risk-sharing, as embodied in this model. Furthermore, the article assesses the suitability of the Takaful Wakalah model for the conditions of Central Asian countries based on the following criteria: the region's legal and institutional framework, the level of development of Islamic finance and insurance markets, socio-economic factors, and cultural-religious affinities. In addition, the article comprehensively discusses the economic and institutional advantages of implementing this model in Central Asia, along with the legal, organizational, and market-related challenges that may arise during the process of its practical implementation.

Keywords: Takaful, Islamic finance, Takaful Wakalah model, international experience, financial inclusion, Insurance market in Uzbekistan, Sharia supervision, Central Asia.

Абстрактный: В данной статье проводится научный анализ значения модели Takaful Wakalah (далее — Вакалат), представляющей собой форму посреднического (агентского) договора, применяемого в системе исламского страхования, в экономической среде Центральной Азии. В статье, прежде всего, теоретически раскрывается понятие Takaful Wakalah, а также обосновываются отличительные особенности механизмов её функционирования по сравнению с практикой традиционного страхового агентства. В частности, всесторонне анализируются такие фундаментальные принципы исламских финансов, присущие данной модели, как прозрачность, взаимное согласие, справедливое управление и коллективное распределение рисков. Кроме того, в статье оценивается степень адаптированности модели Takaful Wakalah к условиям стран Центральной Азии на основе следующих критериев: правовая и институциональная система региона, уровень развития исламских финансов и страхового рынка, социально-экономические факторы, а также культурно-религиозная близость. Помимо этого, комплексно рассматриваются экономические и институциональные преимущества внедрения данной модели в Центральной Азии, а также правовые, организационные и рыночные проблемы, которые могут возникнуть в процессе её практической реализации.

Ключевые слова: Такафул, исламское страхование, репрезентативная модель Такафула, международный опыт, финансовая грамотность, узбекский страховой рынок, шариатский контроль, Центральная Азия

Kirish (Введение /Introduction).

Takaful atamasi bugungi kunda jahon miqyosida keng qo'llanilib kelinmoqda. Jahon iqtisodiyotida tobora ommalashayotgan Takaful — ya'ni islomiy sug'urta tizimi, arab tilidagi "kafala" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, u kafolat berish, javobgarlikni o'z zimmasiga olish va kafillik ma'nolarini anglatadi. Takaful sug'urtasining asosiy mohiyati ishtirokchilar o'rtasida o'zaro yordam, adolatli va jamoaviy xavfni taqsimlash tamoyillariga tayanadi. Ushbu sug'urta turi G'arb an'anaviy sug'urta modellaridan bir qator o'ziga xos xususiyatlari bilan farq qiladi. Xususan, an'anaviy sug'urta tizimida asosiy maqsad tijorat foydasini maksimalashtirish bo'lsa, Takaful modeli ijtimoiy birdamlik, hamjihatlik va axloqiy mas'uliyatni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan. Bugungi kunda Takafulning turli tashkiliy-iqtisodiy modellari xalqaro amaliyotda keng qo'llanilmoqda. Jumladan, foyda olishga yo'naltirilgan modellar qatoriga Mudoraba (Mudarabah), Vakalat (Wakalah) hamda aralash Vakalat-Mudoraba (Wakalah-Mudarabah) modellari kiradi. Shu bilan birga, foyda olishni maqsad qilmaydigan, o'zaro yordamga asoslangan

Taavuniy (Ta'awuni) modeli ham mavjud bo'lib, u ijtimoiy yo'naltirilgan Takaful tizimining muhim shakllaridan biri hisoblanadi.

Takafulning Vakala (vakillik) modeli bugungi kunda ko'plab mamlakatlarda amaliyotda qo'llanilayotgan asosiy modellardan biri hisoblanadi. Ushbu modelda "amil (vakil)", ya'ni vakolatli shaxs yoki agent, Takaful operatori sifatida ishtirok etib, **ishtirokchilar (sug'urtalanuvchilar) manfaatlarini ifodalovchi vakil** vazifasini bajaradi. Bunda operator ishtirokchilar nomidan Takaful jamg'armasini boshqaradi hamda ko'rsatilgan xizmatlari uchun oldindan kelishilgan **vakolat (agentlik) haqini** oladi. Takafulning Vakalat modeli ilk bor **Malayziyada 1984-yilda qabul qilingan "Takaful Act 1984" (Act 312)** qonunidan so'ng amaliyotga joriy etilgan. Ushbu modelning aynan Malayziya sharoitida qo'llanilishiga olib kelgan asosiy omillardan biri — mamlakat aholisining o'sha davrda **moliyaviy savodxonlik darajasi hali to'liq shakllanmagan bo'lsa-da**, islomiy moliyaviy xizmatlarga bo'lgan **ijtimoiy ehtiyoj va talabning mavjudligi** edi. Shu jihatdan, Vakalat modeli o'zining **soddaligi, oshkorligi va tushunarligi** bilan Malayziya aholisi uchun mos bo'lgan. Qayd etish joizki, **1983-yilda Malayziyada**

Islom banki tashkil etilganidan so'ng, islomiy moliya tizimini institutsional jihatdan mustahkamlash maqsadida **Takaful faoliyatini tartibga soluvchi qonun (Act 312)** qabul qilindi. Mazkur qonun asosida mamlakatda birinchi Takaful operatori — **Syarikat Takaful Malaysia Berhad** tashkil etilib, u Malayziyada islomiy sug'urta bozorining shakllanishida muhim o'rin tutdi.

Shuningdek, Malayziyada faoliyat yuritayotgan yana bir yirik Takaful kompaniyasi — **Takaful Ikhlas Berhad** (hozirgi kunda **Takaful Ikhlas Family Berhad** va **Takaful Ikhlas General Berhad** nomlari ostida faoliyat yuritadi), shuningdek, **Saudiya Arabistonida joylashgan Al-Jazira Takaful Ta'awuni** ham Vakalat modelidan keng ko'lamda foydalangan va hozirgi kunda ham ushbu model asosida faoliyat olib bormoqda. Bundan tashqari, **Bahrayn hukumati 2005-yilda mamlakat hududida faoliyat yurituvchi barcha sug'urta kompaniyalari uchun Vakalat modelidan foydalanishni majburiy tartibda joriy etdi**. Ushbu yondashuv Takaful tizimini amaliyotga joriy etish jarayonida aholining mazkur sug'urta turiga nisbatan **ishonchi va ko'nikmalarini shakllantirishga**, shu bilan birga **potensial sug'urtalanuvchilarni jalb etishga** xizmat qildi. Natijada, bugungi kunda mazkur davlatlar **Takaful sug'urtasi bo'yicha yetakchi mamlakatlar** qatoridan o'rin egallab kelmoqda.[1] Umuman olganda, Takaful tizimini yo'lga qo'yishda **Vakalat modelidan foydalanish** aholining ushbu sug'urta shakliga moslashuvini tezlashtiradi va bozorga yangi ishtirokchilarni jalb etishda samarali vosita hisoblanadi. O'zbekistonda ham Takaful tizimining ayrim elementlari **ma'lum shakllarda amaliyotga joriy etilmoqda**. Biroq mazkur sohani to'laqonli rivojlantirish uchun **chuqur ilmiy izlanishlar olib borish**, shuningdek **huquqiy, institutsional va amaliy mexanizmlarni takomillashtirish** zarurati mavjud.

Tahlil va natijalar (Анализ и результаты. Analysis and results). Umuman olganda, Takaful faoliyatida **Vakalat (vakillik) tushunchasi aniq va cheklangan vakolatga ega bo'lishi** mumkin, chunki vakala shartnomasining mazmuni va doirasi **Takaful mahsulotlari turiga qarab o'zgarib boradi**. Ushbu modelda **Takaful jamg'armasiga kelib tushgan mablag'larni boshqarish** Takaful operatorining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Takaful operatori ishtirokchilar tomonidan **to'langan badallarning muayyan qismini komissiya (mukofot)** shaklida oladi. Ishtirokchilarning mablag'lari hisobidan sug'urta qoplamalari to'lab berilgandan so'ng, **ortib qolgan mablag'lar (shu jumladan investitsiya faoliyatidan olingan foyda)** to'liq ravishda ishtirokchilarga tegishli bo'ladi. Takaful kompaniyasi vakili o'ziga tegishli **ish haqi va mukofotlarni olgani sababli**, ushbu turdagi vakala **"haq to'lanadigan vakala"** (paid Wakalah) sifatida tasniflanadi. Masalan, **Malayziyada Takaful operatorlari Takaful mahsulotlarini targ'ib qilish va bozorni kengaytirishda muhim rol o'ynaydi**. Takaful fondi ishtirokchilari jalb etgan Takaful operatorlari **to'liq stavkada yoki to'liq bo'lmagan (qisman) stavkada** ishga jalb qilinishi mumkin. Takaful kompaniyalari tomonidan jalb etilgan Takaful operatorlari **vakala shartnomasi tamoyillari asosida faoliyat yuritadi** va ishtirokchilar manfaatlarini himoya qilishga mas'ul hisoblanadi. **Vakillik (Vakala) modelining ijobiy va salbiy jihatlarini tahlil qiladigan bo'lsak**, uning bir qator muhim afzalliklarini qayd etish mumkin.[2] Avvalo, mazkur model **ijtimoiy-iqtisodiy nuqtayi nazardan hukumat uchun muhim yordamchi mexanizm** sifatida xizmat qiladi. Chunki ushbu tizim doirasida aholining xayriya va o'zaro yordam mablag'lari shakllanib, **davlat ijtimoiy qo'llab-quvvatlash dasturlariga bo'lgan qaramlikni kamaytiradi**, natijada davlat byudjetiga tushadigan yuk yengillashadi.

Shuningdek, Takaful operatsiyalari orqali **jamiyatda o'z-o'ziga tayanish va ijtimoiy mas'uliyat hissi mustahkamlanadi**. Ayniqsa, ehtiyojmand qatlam vakillari uchun **o'zaro yordamning jamoaviy ruhini** rivojlantirishga sezilarli hissa qo'shadi. Bundan tashqari, Vakillik modeli ishtirokchilarda **mablag'larni ishonchli, xavfsiz va tizimli tarzda jamg'arish zarurati** haqidagi tushunchani shakllantiradi. Mazkur tizim musulmon aholiga **o'z moliyaviy resurslarini shariat tamoyillariga to'liq mos holda boshqarish va saqlash uchun muqobil moliyaviy yechimni** taqdim etadi. [3] Qo'shimcha ravishda, hozirgi kunda rivojlanib borayotgan **Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun Vakillik modeli umumiy iqtisodiyot va moliya sektorining barqaror rivojlanishiga turtki bo'luvchi muhim omil** sifatida namoyon bo'ladi. Albatta, bu tizimning ham o'ziga yarasha salbiy jihatlari ham bor. Ularga jahon tajribasida misol qilib, takaful operatorlari tomonidan belgilangan muddat ichida ba'zi yig'ilgan pul mablag'larini takaful fondiga darhol topshirishmayotganligi. Kompaniya agentlarga pul mablag'larini topshirish uchun yetarlicha va oqilona muddat berishiga qaramay, bu pul mablag'larini takaful operatorlari tomonidan o'zlashtirilishi yoki noto'g'ri sarflanishi kabi holatlar uchrab turibdi. Bu kabi harakatlar kompaniya va takaful operatori o'rtasida tuzilgan Vakillik shartnomasi

buzilishi yoki bekor qilinishiga olib kelmoqda. Ikkinchi salbiy jihatlardan yana biri, takaful shartnomalarini ko'paytirish maqsadida, agentlar tomonidan o'zlarining potensial ishtirokchilarga ega chiqish uchun reklamalar, maxsus taqdimomtlar, nashrlar va boshqa marketing usullaridan foydalanadilar. Shuningdek, hozirgi kunda har bir takaful agentining shaxsiy bloglar, veb-sahifalari orqali internetda ham reklama qiladilar. Ammo muammo tarqatlayotgan ma'lumotning mazmunida bo'lib, ba'zida agentlar taklif etilayotgan xizmatlar kompaniyaning rasmiy taklif standartlariga to'la qonli javob bermaganligi hisoblanadi. Natijada esa, ushbu ma'lumotlar fond ishtirokchilarini chalg'itishida, ular orasida tortishuvlar, nizolar va tushunmoqchilikka sabab bo'ladi. Agentlar bilan bo'ladigan so'nggi muammo bu ishtirokchilarga ishtirok etish sertifikatlarini (polislarni) topshirish masalasidir. Ba'zi agentlar shartnoma tuzilgandan (sotuv amalga oshirilgandan) so'ng sertifikatni yetkazib bera olmaydilar. Bu holat agentlarning o'z majburiyatlarini bajara olmaganliklarini yaqqol ko'rsatadi. Bundan tashqari, bu xatti-harakat nafaqat agentning mas'uliyatsizligini, balki Takaful kompaniyasining imidji va obro'yiga ham salbiy ta'sir ko'rsatib, unga putur yetkazadi. Natijada, ishtirokchilarning Takaful kompaniyasiga bo'lgan ishonchi pasayishiga olib keladi. [4]

Takaful bozorida Vakala (Vakillik) modelining ikki turi mavjud bo'lib, ular bir-biriga yaqin bo'lsa-da, asosiy farqi Takaful faoliyati natijasida hosil bo'lgan ortiqcha daromadning taqsimlanishida namoyon bo'ladi. Bu turlar quyidagilardir:

1. Sof vakillik (Pure Wakalah)
2. Yangilangan vakillik (Modified Wakalah). [5]

Sof vakillik (Pure Wakalah) modelining tarkibi:

1. Takaful ishtirokchilarining ulushi (hissasi) tabarru sifatida Takaful fondiga o'tkaziladi. Tabarru (arabcha: تبرع) — xayriya, ehson qilish degan ma'nolarga ega bo'lib, ushbu modelda mablag'lar sug'urta qoplamalarini ta'minlash va jamoaviy xavfni taqsimlashga yo'naltiriladi.
2. Takaful ishtirokchilari Takaful operatorini agent yoki vakil sifatida tayinlaydi.
3. So'ngra, Takaful operatori o'z xizmati uchun vakillik uchun to'lanadigan haqni yig'ilgan ulushdan ayirib oladi. Ushbu haq — oldindan kelishilgan to'lov bo'lib, jamg'armani boshqarish uchun olinadigan haqdan tashqari aksiyadorlar va agentlarga yo'naltiriladi.
4. Vakillik uchun to'lanadigan haq ayirilgandan so'ng, qolgan mablag' Takaful fondiga o'tkaziladi.
5. Takaful operatori tomonidan yig'ilgan ulushlar Shariat tomonidan ruhsat etilgan moliyaviy instrumentlarga investitsiya qilinadi.
6. Investitsiyalardan kelgan daromad Takaful fondiga qo'shiladi, so'ngra da'volar, zaxiralalar (reservlar) va retakaful (qayta Takaful) uchun yo'naltiriladi.
7. Takaful fondida qolgan qoldiq ishtirokchilar o'rtasida taqsimlanadi.
8. Agar anderrayingting defitsiti hosil bo'lsa, Takaful operatori tomonidan qarzi hasana shaklida Takaful fondiga kiritiladi. Keyinchalik, fond foyda keltirganidan so'ng, qarz to'liq Takaful operatoriga qaytariladi. [6]

Sof vakillik (Pure Wakalah) modeli tijorat asosida ishlaydi va Takaful operatori fondni boshqarish uchun ma'lum bir vakillik to'lovini oladi, bu to'lov da'volar, anderrayingting ortiqchasi, retakaful va boshqa xarajatlarni qamrab oladi. Vakillik haqqi agentlik va ma'muriy xarajatlarni o'z ichiga oladi. Yangilangan vakillik (Modified Wakalah) modeli esa sof vakillikdan farqli o'laroq, Takaful operatoriga anderrayingting ortiqchasi bir qismini uning samarali mehnati uchun talab qilish huquqi berilgan. Fikrimizcha, Takafulning Vakalat modelini Markaziy Osiyo, xususan O'zbekistonda joriy etish — Islom moliyasiga, sug'urtasiga va umumiy Islom iqtisodiyotiga kirish hamda uning mazmun-mohiyatini tushunishga bo'lgan ilk qadamlardan biri bo'ladi. Yuqorida qayd etilganidek, aholida Islom sug'urtasiga qiziqish mavjud bo'lsa-da, moliyaviy savodxonlik va sug'urta bo'yicha yetarli bilimlar yo'q. Shu sababli, Vakalat modeli eng qulay va mos model hisoblanadi. [7]

Shuningdek, xalqaro tajribalarni hisobga olgan holda bir nechta tavsiyalar berish mumkin:

- Xalqaro hamkorlik — AAOIFI va IFSB kabi tashkilotlar bilan metodologik va texnik hamkorlik o'rnatish zarur.
- Shariat nazorati kengashlari tashkil etish — islomiy moliya bo'yicha malakali ulamolar ishtirokida doimiy fatvo va maslahat mexanizmini yo'lga qo'yish.
- Mahalliy amaliyot — O'zbekiston sug'urta bozorida mavjud sug'urta tashkilotlariga Takaful darchalarini ochish, shuningdek, 1-2 yangi sug'urta tashkilotlariga sinov tariqasida to'liq Takaful faoliyatini amalga oshirish sharti bilan davlat nazorati ostida litsenziyalash.

• Start-uplar va inkubatsiya dasturlari — Takaful start-up'lari uchun pilot model asosida bir hududda tajriba o'tkazish mumkin. [8]

Xulosa (Заключение/Conclusion).

Takafulning **Vakala (Vakillik) modeli** islomiy sug'urta tizimida ishtirokchilar manfaatlarini himoya qilish va moliyaviy resurslarni samarali boshqarish uchun muhim mexanizm hisoblanadi. Ushbu modelning sof vakillik (Pure Wakalah) va yangilangan vakillik (Modified Wakalah) turlari mavjud bo'lib, ularning asosiy farqi **Takaful faoliyati natijasida hosil bo'lgan ortiqcha daromadning taqsimlanishida** namoyon bo'ladi. Sof vakillik modelida mablag'lar tabarru shaklida Takaful fondiga o'tkazilib, operator tomonidan faqat oldindan kelishilgan vakillik to'lovi olinadi. Yangilangan vakillik modelida esa, operatorga andarrayting ortiqchasining bir qismi uning samarali mehnati uchun talab qilish huquqi beriladi. Vakillik modeli nafaqat tijoratiy asosda ishlaydi, balki **ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ham ahamiyatga ega**. U aholining xayriya mablag'larini davlat qo'llab-quvvatlash dasturlariga bo'lgan qaramligini kamaytiradi, jamiyatning o'z-o'ziga tayanishini mustahkamlaydi va ehtiyojmand qatlamlar uchun jamoaviy yordam ruhini rivojlantiradi. Shuningdek, Takaful operatorining mablag'larni ishonchli, xavfsiz va tartibli boshqarishi orqali musulmon aholiga **Shariat tamoyillariga mos moliyaviy yechim** taqdim etiladi.

Markaziy Osiyo, xususan O'zbekistonda Vakalat modelini joriy etish **Islom moliyasiga, sug'urtasiga va umumiy Islom iqtisodiyotiga kirish hamda uning mazmun-mohiyatini tushunishga qaratilgan birinchi qadamlardan biri** bo'ladi. Ushbu model aholida moliyaviy savodxonlik darajasi past bo'lgan, ammo Islom moliyasi va sug'urtasiga qiziqishi mavjud bo'lgan sharoitda eng qulay va samarali yechim bo'lib xizmat qiladi.

Vakalat modelini O'zbekistonda muvaffaqiyatli joriy etish uchun quyidagi ishlar amalga oshirilishi zarur:

- Maxsus qonunlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, shuningdek, hukumat tomonidan ushbu yo'nalishda olib borilayotgan ishlarni yanada kengaytirish;
- Ilmiy tadqiqotlarni ko'paytirish va rag'batlantirish, xalqaro tajribalarni o'rganish;
- **Shariat nazorati mexanizmlarini** institutsional asosda tashkil etish, malakali ulamolar ishtirokida doimiy fatvo va maslahat tizimini yo'lga qo'yish;
- Aholi va moliya sohasi mutaxassislarini o'qitish orqali moliyaviy savodxonlikni oshirish;
- Mahalliy sug'urta tashkilotlariga Takaful darchalari ochish va yangi sug'urta tashkilotlarini **pilot loyiha sifatida to'liq Takaful faoliyatini amalga oshirishga** yo'naltirish;
- Takaful start-up'lari uchun inkubatsiya dasturlari va pilot loyihalar asosida tajriba o'tkazish.

Xulosa qilib aytganda, **Vakalat modeli nafaqat moliyaviy barqarorlik va ijtimoiy foyda, balki Islom sug'urtasi tizimini mamlakatlarda muvaffaqiyatli joriy etish uchun samarali vosita** hisoblanadi. Uni amaliyotga tatbiq etish, shuningdek, xalqaro standartlar va Shariat talablariga moslashtirish orqali O'zbekiston va boshqa Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun **barqaror va ishonchli islomiy sug'urta tizimini yaratish imkoniyatini beradi**.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

1. LAWS OF MALAYSIA Islamic Financial Services Act 2013 Act 759
2. Understanding Islamic Finance by Muhammad Ayub Copyright © 2007 John Wiley & Sons Ltd
3. The Application of Wakalah Contract in Takaful: Perceptions of Practitioners Noor Aimi Mohamad Puad^{1*}, Anis Nadhirah Nor Mukshar² Holilur Rahman³ & Syaifuddin⁴ Jun 26, 2025
<https://jmm.uis.edu.my/index.php/jurnal/article/download/233/152/1961>
4. Introduction to Takaful Theory and Practice by Adnan Malik and Karim Ullah The Author(s) 2019
<https://link.springer.com/book/10.1007/978-981-32-9016-7>
5. TAKAFUL: ISLOMIY SUG'URTANING ZAMONAVIY IMKONIYATLARI VA RIVOJLANISH MUAMMOLARI, Xudoyberdiyev Umid Murodovich, «AMANA SUG'URTA» AJ Boshqaruv raisi
6. SHARIAH STANDARDS Full text of Shari'ah Standards for Islamic Financial Institutions as at Safar A.H. - December 2015 A.D Shari'ah Standard No. (26) <https://aaoifi.com/shariaa-standards/?lang=en>
7. COMCEC COORDINATION OFFICE Improving the Takaful Sector in Islamic Countries October 2019 by Istanbul Sabahattin Zaim University
<https://www.comcec.org/wp-content/uploads/2021/07/PROCEEDINGS-OF-THE-13TH-MEETING-OF-THE-FCWG.pdf>
8. Nomozova Qumri Isoevna. (2025). GLOBALASHUV SHAROITIDA IQTISODIY INTEGRATSIYA VA RAQAMLASHTIRISHNING RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI. Insurance Market of Uzbekistan, 2(5), 8–10.
https://doi.org/10.55439/INS/vol2_iss5/323